

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI ADABIY NUTQNI RIVOJLANTIRISH

Ravshanova Dildora Sagdullayevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ta'lim-tarbiya nazariyasi (Boshlang'ich ta'lim)

mutaxassisligi 1-bosqich magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17264475>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qish savodxonligi darslarining adabiy nutqni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Muallif matn ustida ishlashning bosqichlari, metodik yondashuvlari va bolalarning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirishdagi ta'sirini ochib beradi. Dars jarayonida badiiy matnlar asosida so'z boyligini kengaytirish, nutq madaniyatini oshirish, obrazli fikrlashni rivojlantirish kabi jihatlar yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, matnga tanqidiy va tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishda matn ustida tizimli ishlashning ahamiyati asoslab beriladi. Ilmiy-nazariy qarashlar hamda amaliy tajribalar asosida taklif va tavsiyalar beriladi. Maqola boshlang'ich ta'lim tizimida adabiy nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik vositalarni takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: O'qish savodxonligi, matn ustida ishlash, adabiy nutq, nutq madaniyati, so'z boyligi, metodik yondashuv, tanqidiy fikrlash, badiiy matnlar, boshlang'ich ta'lim, og'zaki va yozma nutq.

Abstract: This article analyzes the role of reading literacy lessons in the formation of literary speech. The author reveals the stages of working on the text, methodological approaches and their impact on the development of children's oral and written speech. During the lesson, aspects such as expanding vocabulary on the basis of literary texts, improving speech culture, and developing figurative thinking are covered. The importance of systematic work on the text in forming independent thinking, critical and analytical approach to the text in students is also substantiated. Suggestions and recommendations are given based on scientific and theoretical views and practical experience. The article is aimed at improving methodological tools that serve the development of literary speech in the primary education system.

Keywords: Reading literacy, working on the text, literary speech, speech culture, vocabulary, methodological approach, critical thinking, literary texts, primary education, oral and written speech.

Аннотация: В статье анализируется роль уроков читательской грамотности в формировании литературного дискурса. Автор раскрывает этапы работы над текстом, методические подходы и их влияние на развитие устной и письменной речи детей. В ходе урока будут рассмотрены такие аспекты, как расширение словарного запаса, повышение культуры речи, развитие образного мышления на основе художественных текстов. Обосновывается также важность систематической работы над текстом в формировании у учащихся навыков самостоятельного мышления, критического и аналитического подхода к тексту. Предложения и рекомендации даются на основе научно-теоретических взглядов и практического опыта. Целью статьи является совершенствование методического инструментария, служащего развитию литературной речи в системе начального образования.

Ключевые слова: Грамотность чтения, работа над текстом, литературная речь, культура речи, словарный запас, методический подход, критическое мышление, художественные тексты, начальное образование, устная и письменная речь.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni mustaqil o'qish va tushunishga o'rgatish, shuningdek, adabiy nutqni shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Axborotga boy va tez o'zgaruvchan zamonaviy jamiyatda shunchaki o'qish yoki eslab qolish emas, balki o'qilgan matndan to'g'ri xulosa chiqarish, uni baholash, qayta tahlil qilish va hayotiy vaziyatlarga moslashtira olish ko'nikmalari ta'lim jarayonida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni nafaqat texnik jihatdan o'qib tushunish (ya'ni, tovushlarni talaffuz qilish, matnni silliq o'qish), balki matn asosida mustaqil fikr yuritish, o'z qarashlarini ifodalash, muallif g'oyasini anglash, hodisalarga munosabat bildirish, o'z fikrini aniq, mantiqiy va adabiy uslubda bayon eta olish kabi murakkab ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi.

Shu nuqtai nazardan qaranganda, o'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash bu yo'nalishda o'ta muhim metodik vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur faoliyat nafaqat o'qish mahoratini mustahkamlaydi, balki o'quvchilarni fikr yuritishga, savol berishga, muammoli holatlarda echim topishga undaydi. Bu orqali ular o'rganilayotgan matnga nisbatan faol, izlanishga asoslangan yondashuv shakllanadi.

Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilar:

- leksik boyligini kengaytiradi, ya'ni yangi so'zlarni o'zlashtiradi va ularni kontekstda to'g'ri qo'llashni o'rganadi;
- obrazli fikrlashni rivojlantiradi – badiiy obrazlar, tasviriy vositalar orqali voqelikni chuqurroq tushunadi;
- nutq madaniyatini takomillashtiradi – to'g'ri talaffuz, izchillik, aniqlik va ifodalilik kabi komponentlarni egallaydi;
- voqelikni badiiy idrok etish ko'nikmalarini shakllantiradi – hayotiy hodisalarga badiiy estetik nuqtai nazardan baho berishni o'rganadi.

Shuningdek, bunday darslar orqali o'quvchilarda:

- tanqidiy fikrlash – matndagi asosiy g'oyani tahlil qilish, qarama-qarshi fikrlarni solishtirish, dalillash;
- mustaqil xulosa chiqarish – matn asosida o'z mulohazasini bildirish, yakuniy fikr shakllantirish;
- matnga ijodiy yondashish – muqobil yakun tuzish, matndagi voqeani davom ettirish, rasm chizish, dramatizatsiya qilish kabi ijodiy faoliyatlar keng rivojlanadi.

“O'qish kitobi” darsliklarida berilgan matnlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini shakllantirishda vosita hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni matn mazmunini to'g'ri tushunish, ongli va ifodali o'qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o'rganilayotgan materialning mazmuni, o'quvchilarning mavjud bilim, ko'nikma, malakalari darajasiga ko'ra amalga oshiradi. O'quvchilarni asar matnini o'qishga tayyorlashda, birinchi navbatda, ularni matn mavzusi, tili, g'oyaviy mazmuni va badiiy-estetik

qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e'tibor qaratiladi. O'qish faoliyati ham nutqning alohida ko'rinishi hisoblanadi.[1]

O'quvchining o'z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to'g'ri ifodalay olishi uning o'quv-bilish faolligi darajasini, ko'nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O'qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o'zlashtirish yuzasidan qo'yilgan savol va topshiriqlar o'quvchilarni o'ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo'llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko'proq o'zi uchun yangi so'z va iboralarni ishlatishga undashi lozim.[2]

O'qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida asosiy e'tibor uning mazmuniga qaratilsa-da, tuzilishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Jumladan, voqea kechayotgan sharoit, peyzaj, asar qahramonlarining kechmishlari, ruhiyati tasvirida o'tgan, hozirgi yoki kelasi zamon shakllaridan foydalanilishini anglagan o'quvchi matn mazmunini og'zaki hikoyalashda adashmaydi. O'quvchilar diqqatini matndagi bir mazmundagi hodisalar tasvirida (peyzaj, adabiy qahramonning ruhiy holati, portreti) fe'l-kesimlar, odatda, bitta zamon shaklida bo'lishiga qaratish ularning nafaqat o'qish va yozuv, balki matn mazmunini idrok etish va fikrlash bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Matnlarda jumllalararo aloqa alohida e'tiborga molik. Odatda, matnning aynan bir shaxs yoki bitta voqea-hodisa haqida gap boradigan qismi o'zaro aloqada bo'lib, xatboshidan boshlanadi. Darslarda o'quvchilarga matn qismlarini o'qish yoki ko'chirib yozishni topshirish ularning diqqatini ma'lum bir maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi.[3]

Ko'rsatilgan belgilar asosida matnni mazmunan tugal va o'quvchida xabar qilinayotgan axborotga ma'lum munosabat uyg'otish bilan xarakterlanadigan yozma shakldagi axborot sifatida ta'riflash mumkin. Bizningcha, "matn" tushunchasining g'oyaviynazariy talqini yetarlicha yoritilmagan. Ayni o'rinda L.Losevaning matnni ifodalovchi belgilar borasidagi fikrini quyidagilar bilan to'ldirish mumkin:

- 1) axborotning yozma shaklda ifodalanishi;
- 2) mazmun jihatidan o'ziga xos tugallikka egalik;
- 3) o'quvchida voqelikka nisbatan muayyan munosabat uyg'otish imkoniyatining mavjudligi;
- 4) kompozitsiya, syujet, tarkibiy tuzilmaga, shuningdek, tarkibiy elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikka egalik;
- 5) muayyan sohaga taalluqli bo'lishi;
- 6) aniq mavzu bo'yicha axborot berishi;
- 7) o'ziga xos bayon uslubiga egalik;
- 8) aniq sub'ektga yo'naltirilganligi (masalan, o'quvchi yoki o'qituvchi uchun mo'ljallanganligi);
- 9) aniq maqsad uchun xizmat qilishi.

Matnni sintaktik jihatdan mazmuniga ko'ra va leksik-grammatik vositalar yordamida o'zaro bog'langan gaplar yig'indisi tarzida tushunish ham xato sanalmaydi. "Matn deganda murakkab sintaktik butunlik va erkin gaplardan iborat butunlikni tushunish kerak. Matnning sintaktik tahlili gaplar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish, matnni gapdan kattaroq sintaktik birliklarga, murakkab sintaktik butunlikka parchalashni o'z ichiga oladi" [4]

Matn ustida ishlashning psixologik-pedagogik asoslari shundan iboratki, bu faoliyat o'quvchining bilim olish, tafakkur qilish, estetik idrok, nutqiy kompetensiyalarini uyg'unlashtiradi. Bu faoliyatda quyidagi bosqichlar muhim hisoblanadi:

- 1.1. Matnni o'qishga tayyorlash: matn mavzusini ochish, asosiy so'zlar ustida ishlash;
- 1.2. Matnni o'qish: ifodali, ongli, xotira bilan o'qish;
- 1.3. Tahlil qilish: matndagi voqealarni izchil bayon etish, asosiy g'oyani aniqlash;
- 1.4. Baholash: matnga shaxsiy munosabat bildirish, muallif pozitsiyasini tushunish;
- 1.5. Yozma va og'zaki ifoda: o'quvchining o'z so'zlari bilan matnni hikoya qilish, xulosa chiqarish.

O'qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida asosiy e'tibor uning mazmuniga qaratilsa-da, tuzilishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Jumladan, voqea kechayotgan sharoit, peyzaj, asar qahramonlarining kechmishlari, ruhiyati tasvirida o'tgan, hozirgi yoki kelasi zamon shakllaridan foydalanilishini anglagan o'quvchi matn mazmunini og'zaki hikoyalashda adashmaydi. O'quvchilar diqqatini matndagi bir mazmundagi hodisalar tasvirida (peyzaj, adabiy qahramonning ruhiy holati, portreti) fe'l-kesimlar, odatda, bitta zamon shaklida bo'lishiga qaratish ularning nafaqat o'qish va yozuv, balki matn mazmunini idrok etish va fikrlash bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Matnlarda jumalalararo aloqa alohida e'tiborga molik. Odatda, matnning aynan bir shaxs yoki bitta voqea-hodisa haqida gap boradigan qismi o'zaro aloqada bo'lib, xatboshidan boshlanadi. Darslarda o'quvchilarga matn qismlarini o'qish yoki ko'chirib yozishni topshirish ularning diqqatini ma'lum bir maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Matndagi gaplar o'rtasida kommunikatsiya vazifalari bilan belgilangan munosabatlar, ya'ni mazmuniy aloqa mavjud. Bu aloqa uni ifoda etuvchi leksik-grammatik vositalar orqali o'z aksini topadi. Har qanday so'zlarni gapga birlashtirib bo'lmagani kabi har qanday gaplarni ham bitta bog'lanishli matnga birlashtirib bo'lmaydi. Masalan, "Bolalar dam olishga ketishdi", "Gullar ochildi", "Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi" kabi gaplarni bir matnga birlashtirib bo'lmaydi. Ular turli mazmunga ega bo'lgani bois biror bir munosabatga ko'ra ham birlasha olmaydi. Umumlashtirish va xulosalar chiqarish. Bu kabi ish turlari matn mazmuni yuzasidan umumiy xulosalar chiqarish orqali unda aks ettirilgan masalalarni chuqur idrok etishga, mavzuning ochilmay qolgan qirralari haqida mulohaza yuritishga, o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishga qaratiladi.[5]

Badiiy matnlar orqali o'quvchilar quyidagi kompetensiyalarni egallaydi:

- Estetik tafakkur (obrazni idrok etish);
- Nutq madaniyati (to'g'ri talaffuz, ifodali so'zlash);
- Mustaqil fikrlash (xulosa chiqarish, muammoga munosabat bildirish);
- So'z boyligi (leksik boylikni oshirish);
- Muloqot kompetensiyasi (suhbat qurish, javob berish, savol berish).

Masalan, "Tong nafasi" she'rini tahlil qilish orqali o'quvchi tabiat tasvirini sezadi, obrazli ifodalarni eslab qoladi va nutqida foydalanishga urinadi.

O'qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida asosiy e'tibor uning mazmuniga qaratilsada, tuzilishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Jumladan, voqea kechayotgan sharoit, peyzaj, asar qahramonlarining kechmishlari, ruhiyati tasvirida o'tgan, hozirgi yoki kelasi zamon shakllaridan foydalanilishini anglagan o'quvchi matn mazmunini og'zaki hikoyalashda adashmaydi. O'quvchilar diqqatini matndagi bir mazmundagi hodisalar tasvirida

(peyzaj, adabiy qahramonning ruhiy holati, portreti) fe'l-kesimlar, odatda, bitta zamon shaklida bo'lishiga qaratish ularning nafaqat o'qish va yozuv, balki matn mazmunini idrok etish va fikrlash bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Matnlarda jumllalararo aloqa alohida e'tiborga molik. Odatda, matnning aynan bir shaxs yoki bitta voqea-hodisa haqida gap boradigan qismi o'zaro aloqada bo'lib, xatboshidan boshlanadi. Darslarda o'quvchilarga matn qismlarini o'qish yoki ko'chirib yozishni topshirish ularning diqqatini ma'lum bir maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Matndagi gaplar o'rtasida kommunikatsiya vazifalari bilan belgilangan munosabatlar, ya'ni mazmuniy aloqa mavjud. Bu aloqa uni ifoda etuvchi leksik-grammatik vositalar orqali o'z aksini topadi. Har qanday so'zlarni gapga birlashtirib bo'lmagani kabi har qanday gaplarni ham bitta bog'lanishli matnga birlashtirib bo'lmaydi. Masalan, "Bolalar dam olishga ketishdi", "Gullar ochildi", "Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi" kabi gaplarni bir matnga birlashtirib bo'lmaydi. Ular turli mazmunga ega bo'lgani bois biror bir munosabatga ko'ra ham birlasha olmaydi.[6]

O'qituvchining adabiy nutqni rivojlantirishdagi metodik yondashuvi va pedagogik mahorati darsning muvaffaqiyatli tashkil etilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir darsda matn ustida ishlashga innovatsion, didaktik va estetik yondashuv zarur. Metodik jihatdan samarali darslar quyidagi interaktiv va ijodiy faoliyatlarga asoslanadi:

- **Klaster, fishbone, sinkveyn kabi grafik metodlar** – bu metodlar o'quvchilarning fikrlarini vizual tarzda ifodalashga yordam beradi. Masalan, klaster tuzish orqali matn asosiy g'oyasi atrofida bog'liq fikrlar tizimlashtiriladi. Bu usul bolalarda tahliliy fikrlashni shakllantiradi.
- **Rolli o'yinlar, dramatizatsiya, sahnalashtirish** – bular matnni jonlantiradi, o'quvchilarning xotirasida obrazlar jonli saqlanib qoladi. Masalan, "Bahor keldi" matni asosida dramatik sahna qo'yilishi bolalarni nafaqat og'zaki nutqqa, balki estetik idrokka ham chorlaydi.
- **Matn asosida rasm chizish, rolga kirib fikr bildirish** – bu usullar o'quvchilarning tasavvuri va his-tuyg'ularini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Rasm chizish orqali matn obrazlari vizual ko'rinish oladi, bu esa adabiy idrokni mustahkamlaydi.
- **O'z so'zlari bilan voqeani bayon qilish (reproduktiv va produktiv usullar)** – bu orqali o'quvchi eshitgan yoki o'qigan matn asosida mustaqil, mantiqiy va izchil ifoda berishga o'rganadi. Reproduktiv usulda u mavjud matnni qayta aytadi, produktivda esa voqeani o'z tasavvurida davom ettiradi yoki yangicha yondashuv bilan qayta ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'qish savodxonligi darslarida matn ustida tizimli va maqsadga yo'naltirilgan ishlash o'quvchilarning adabiy nutqini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga egadir. Ushbu faoliyat orqali o'quvchilar nafaqat matnni texnik jihatdan o'qish va tushunishni o'rganadilar, balki uning mazmunini anglash, muallif fikrini tahlil qilish, obrazlarni his etish, muammoni tushunish va unga munosabat bildirish kabi yuqori darajadagi tafakkur faoliyatiga jalb qilinadilar. Bu esa o'z navbatida ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, tanqidiy va tahliliy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunday darslar orqali bolalarda:

- obrazli va mantiqli fikrlash,
- so'z boyligidan to'g'ri va o'rinli foydalanish,
- muammoli vaziyatlarda ijodiy yondasha olish,
- og'zaki va yozma nutqni adabiy uslubda ifodalash ko'nikmalari barpo bo'ladi.

Matn ustida ishlash metodikasining ilmiy asosda tashkil etilishi o'quvchilarda tahliliy fikrlash, nutq madaniyati, muloqot kompetensiyalari, ifodali so'zlash, o'z fikrini aniq va izchil bayon qilish kabi hayotiy zarur bo'lgan ko'nikmalarning shakllanishiga olib keladi.

Ayniqsa, badiiy matnlar asosida olib boriladigan mashg'ulotlar bolalarning:

- estetik didini shakllantiradi – ular go'zallikni idrok etadi, estetik baho beradi;
- axloqiy qarashlarini boyitadi – matn mazmunidan foydali saboqlar oladi, hayotga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadi;
- ijodiy tafakkurini rivojlantiradi – yangi g'oyalar yaratish, matnni davom ettirish, muqobil yakun yasash orqali.

Shuningdek, o'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash o'quvchilarni nafaqat bilim oluvchi balki fikrlovchi, tahlil qiluvchi, ijod qiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim bosqichidanoq adabiy nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar, innovatsion usullar va samarali texnologiyalarni qo'llash dolzarb hisoblanadi.

Shu boisdan:

- Har bir o'qish darsi o'quvchi shaxsini rivojlantirishga xizmat qiluvchi nutqiy mashg'ulotga aylanishi lozim;
- Matn bilan ishlashda o'quvchilarning yoshiga mos, qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega materiallar tanlanishi zarur;
- O'quvchilarni o'ylashga, izlanishga va mulohaza qilishga undaydigan metodlar keng qo'llanilishi kerak.

Shunday yondashuv asosida tashkil etilgan o'qish savodxonligi darslari bolalarda sog'lom muloqot, adabiy tafakkur va ijtimoiy faoliyatga tayyorlik sifatlarini shakllantiradi hamda ularning kelgusidagi ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga poydevor bo'ladi.

Shu bois, o'qituvchilar o'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlashning zamonaviy va innovatsion usullarini amaliyotga keng tatbiq etishlari, har bir darsni bolalar nutqini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik vosita sifatida ko'rishlari zarur. Bu esa boshlang'ich ta'lim bosqichidanoq o'quvchilarda adabiy savodxonlik va nutqiy madaniyatning mustahkam asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Aminova F. H. O'quvchilarni muloqot matni yaratishga o'rgatishning didaktik asoslari: Ped. fan. nomz. dis. avtoref. – T.: O'zPFITI. 2007.
2. Asqarova M., Matchonov S., Qodirova F., G'ulomova X., Boymatova A., Bozorova M., Muhamedova D. O'zbek tili mashg'ulotlarida nutq o'stirish. – T.: TDPU, 2000.
3. Bekniyazova N. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarga matn yaratishni o'rgatish metodikasi (ta'lim o'zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012
4. Бекниязова Н. Бошланғич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларга матн яратишни ўргатиш методикаси (таълим ўзбек ва қорақалпоқ тилларида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. – Т.: Фан ва технологиялар, 2012.
5. Зиядова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш: Пед. фан. номз. ...дис. автoref. – Т.: ТДПИ. 1995.
6. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – T.: Fan, 2007.

7. Jo'rabek, Normengov. "Boshlang'ich ta'limda axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanish." Журнал научных исследований и их решений 4.02 (2025): 524-530.
8. O'G'Li, Qodirov Farrux Ergash, and Normengov Jo'Rabek. "Axborot texnologiyalari va tabiiy ilmiy fanlarni o'qitishda dolzarb muammolar va ularni hal qilishning innovatsion usullari." Central Asian Journal of Education and Innovation 3.12 (2024): 43-48.